“O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda ijro intizomini mustahkamlash jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligini tanqidiy ko‘rib chiqish hamda 2023-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar to‘g‘risida “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvining kengaytirilgan majlisi o‘tkazildi

// 27.02.2023
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-boshqaruvining-kengaytirilgan-majlisi-otkazildi



Joriy yilning 27-fevral kuni “O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati, departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari hamda tarmoq korxonalari rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirokida tanqidiy ruhdagi kengaytirilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Kun tartibidagi asosiy masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlangan topshiriqlarni sifatli ta‘minlash chora-tadbirlari belgilab olindi. Jumladan, joriy yilning avgust oyiga qadar Navoiy viloyatida yillik quvvati 40 ming tonnaga teng “Quruq sianid tuzlari ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasini o‘z vaqtida ishga tushirilishi uchun mas’ul rahbarlarga shaxsiy javobgarlik yuklatildi.

Yig‘ilish davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, qarori, farmoyish va bayonlarida belgilangan 78 ta topshiriq ijrosi o‘z muddatida ta’minlandi. Shuningdek, mart oyida belgilangan 45 ta topshiriqlar ijrosini sifatli tashkil etish bo‘yicha tarkibiy tuzilma rahbarlariga ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, tarmoq korxonalarida hujjatlarni ro‘yxatga olish, ijro intizomi, direktiv hujjat va topshiriqlar ijrosining nazorati, xususan, bugungi kunga qadar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tanqidiy muhokama qilindi. Olib borilgan o‘rganishlarga ko‘ra, “O‘zkimyosanoat” AJ ijro apparati bo‘yicha 2022-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 528 ta, tarmoq korxonalarida yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 2857 ta murojaatlar kelib tushgan (*2021-yilning shu davriga nisbatan 14,2 foizga kamaygan*). O‘z vaqtida hal etilmagan 84 ta takroriy murojaatlarga mas’ul bo‘lgan xodimlarning lavozimlariga loyiqlik masalasi ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilish yakunida kun tartibida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan aniq, tizimli ishlar va vazifalar belgilab olindi. Nazoratdagi topshiriqlarni ijrosini ta’minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘ygan ijrochilarga ogohlantirishlar berildi. Ijro apparatining mas’ul xodimlariga reja-grafikga muvofiq har oyda tarmoq korxonalarida ijro intizomini joyiga chiqqan holda maqsadli o‘rganishlar olib borishga ko‘rsatma berildi. Kelgusida ushbu kamchiliklar takrorlanmasligi uchun tarmoq korxonalari xodimlarining ijro intizomi sohasida malakasini oshirish masalasi ko‘rib chiqildi.


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati